

O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalariga bag'ishlangan matbuot anjumani

Bugun, 22-dekabr kuni Milliy matbuot markazida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi mas'ullari ishtirokida matbuot anjumani tashkil etildi. Unda so'nggi yillarda O'zbekistonning eng so'nggi tarixini o'rganish masalalari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar haqida ma'lumot berildi.



"Markaz jamoasi uncha katta bo'imasada, ilmiy tashkilotlarning 2020-yildagi ilmiy-innovatsion faoliyati natijalari reytingiga ko'ra jami 105 ta ilmiy tashkilotlarning 27 yo'nalishi bo'yicha 75 ta ko'rsatkichdan 67 o'rinni egalladi" – deydi Markaz direktori o`rinbosari Feruza O`sarova.



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi a'zolari, Fanlar akademiyasining Tarix instituti, Markaz hamda oliy ta'lif tizimida faoliyat olib borayotgan yetakchi olimlar tomonidan ikki kitobdan iborat "O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar)" fundamental tadqiqoti 2019-yilda chop etildi. Fanlararo yondashuv asosida rus tilida 2018-yili "O'zbekistonning eng yangi tarixi" darsligi yaratildi. Ushbu darslik MDH mamlakatlarida eng yangi tarix bo'yicha dastlabki darsliklardan biri bo'lib, 2020-yilda qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri ham chop etildi.

Markaz tomonidan tayyorlangan "Arxivshunoslik" darsligi, "Muzeishunoslik", "Harakatlar strategiyasini "case-study" interaktiv uslubida o'rGANISH" kabi o'quv qo'llanmalar chop qilindi. Mazkur adabiyotlar tayyorlanishida turli OTMdagi o'qituvchilar, ITMdagi olimlar va bevosita amaliyotda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar muallif sifatida jalb qilinganligi bilan ham e'tiborlidir. Shuningdek, o'rta ta'lif maktablarining 11-sinf va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun "O'zbekiston tarixi (Mustaqillik davri)" darsligi chop etildi.

"O'zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari" jurnali nashr etilmoqda. 2020 yilda Markaz tomonidan bir qator vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tayyorlangan "O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi" nomli kitob-albom o'zbek, rus va ingliz tillarida (Toshkent: O'zbekiston, 2020. - 320 b.) chop etildi. 2021-yilda vazirliklar va muassasalar bilan birgalikda "O'zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida" nomli kitob-albom tayyorladi. Mazkur kitob-albom o'zbek, rus va ingliz

tillarida chop etilgan. (Toshkent : O'zbekiston, 2021. - 278 bilan.)

So'nggi 5 yilda Markaz ilmiy xodimlari tomonidan 67 maqola (25 tasi xorijda) va 133 ta tezis (ulardan 31 tasi xorijda), 28 ta monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar nashr etilgan. Shuningdek, Markazda chop etilgan 1 ta darslik va 2 ta o'quv qo'llanmaga 3 ta mualliflik guvohnomalari olingan.

Xalqaro ilmiy aloqalar faollashmoqda, 2017-2021-yillar davomida Germaniya, Rossiya, Belarus Respublikasi ilmiy tadqiqot hamda jamoat muassassalari bilan hamkorlik to'g'risida memorandumlar, shartnomalar imzolandi. Hamkorlik doirasida xalqaro davra suhbatlari, konferensiyalar, seminarlar o'tkazilmoqda, qo'shma nashr ishlari tayyorlanmoqda.

Matbuot anjumani yakunida jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar.

